

## EGOTSENTRIZM - SHAXS YO'NALGANLIGI SIFATIDA

**Kuralova Lobar Baratovna**

*Samarqand viloyati Samarqand shahridagi Prezident maktabi psixologi*

Egotsentrizm tushunchasi o'z tarkibida ikki so'zni tashkil etib, lotinchada —ego— men va —sentrum markazning markazida, diqqat markazida degan ma'nolardan kelib chiqib, odamning atrofga bo'lgan munosabatini aks ettirib, shaxsning o'z mavqeiga yoki individual —meniga qaratilishi bilan tavsiflanadi[6]. Egotsentrizm (yoki egotsentrik shaxs) atamasi ildizining ma'nosiga e'tibor qaratsak, inson o'ziga e'tibor qaratadigan va boshqalarga nisbatan befarq bo'lganlarga nisbatan ishlatiladi. Qator psixologik izlanishlarda egotsentrizm tushunchasi shaxs yo'nalishini tavsiflashda ishlatiladi. Bu shunday munosabatlar tizimiki, unda shaxs o'zini asosiy qadriyat deb, boshqalarni esa uning qarashlari va qiziqishlariga qarama-qarshi deb tushunadi. SHaxsning egotsentrik yo'nalganligi o'z —meni va o'zini ahamiyatli qadriyat deb tan olishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi[2]. Ular boshqalarning fikrlarini e'tiborga olmaslik, dialogik nutqning yo'qligi, o'zgalarning mulohazalariga diqqatsizlik va cheklangan tajribalari yuzasidan tugallangan xulosalarni boshqa insonlar qarashlarini hisobga olmasdan gapirishga intilish kabi xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadilar. Katta insonlarga nisbatan ishlatilganda, egotsentrizm o'z-o'zi bilan mashg'ul bo'lishni va doimiy ravishda o'ziga diqqat-e'tiborni yo'naltirib turishni anglatadi, bolalarga nisbatan esa, J.Piaje nazariyasiga asosan, bolalarning o'z nutqiga, fikrlariga bo'ysunishni anglatadi. Egotsentrik nutq - bu bolaning faqat ichki ehtiyojlar va fikrlarga bo'ysunuvchi, ularga xizmat qiladigan nutqdir. Bolalardagi egotsentrik nutq fenomeni, Jan Piajening so'zlariga ko'ra, maktabgacha yosh davrlarning oxirlariga to'g'ri kelib, bu tashqi muloqotning ichki muloqotga o'tish davrining belgisi bo'lib hisoblanadi va uning fikricha, egotsentrikning hayoti uning ijtimoiylashuv jarayoni bilan belgilanadi. 3-4 yoshdagi bolalarda egotsentrik hulq-atvor xususiyatlari yuqori darajada namoyon bo'lib, bu hulq bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvi bilan sekin-asta kamayib boraveradi[4]. Bola boshqa odamlar bilan qanchalik ko'p muloqot qilsa, u shunchalik katta bo'lib aqli ham rivojlanib boradi va unda egoistik qarashlar ham kamayib boraveradi[1]. SHaxsning muayan yoshlarida namoyon bo'luvchi egotsentrik hulq ko'rinishlaridan biri bu - kognitiv egotsentrizm bo'lib, shaxs shakllanishida dinamik ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, masalan, 12-14 yoshda, ya'ni o'smirlik davrida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi hamda ilk o'spirinlikda pasayadi. SHaxs xususiyatlari sifatida egotsentrizm - bu shaxsning o'z hulq-atvori, xususiyatlari, hatti-harakatlari, qiziqishlari, maqsadlarini o'ziga xos tarzda tahlil qilish turi sifatida ham namoyon

bo'ladi. Egotsentrizm bu shunday egotsentrik yo'nalishki, u boshqalar bilan real munosabatlarda o'z-o'zini ajratish, alohida deb bilish bilan ifodalanadi. Bunday xususiyat egotsentrik ehtiyojlarni amalga oshirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unga muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj, xushyoqish, o'zini-o'zi ta'kidlash va o'z —mennini himoya qilish kabilar kiradi[3]. Voyaga etgan shaxsdagi yuqori darajada egotsentrizm nafaqat boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarda, balki, o'zining hulq-atvor ko'rinishlarida yoki fikrlashidagi nutqning tuzilishida egotizm (o'zini juda yuqori baholash) sifatida namoyon bo'ladi. Egoizm bu - boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan qat'iy nazar, insonning shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish istagidir. A.A.Bodalev tahriri ostidagi "Muloqot psixologiyasi" nomli entsiklopediyasida: Egoizm bu - shaxsning egoistik yo'nalganligi, egotsentrik shaxs tomonidan o'z shaxsiga va mavqeiga qaratilgan bo'lib, o'zining manfaatlari va o'zaro ta'sir maqsadlarini boshqalarnikidan yuqori qo'yish sifatida namoyon bo'ladi, deb ta'riflangan.

Egoist shaxs o'zining egoistik intilishlari tufayli nafaqat moddiy maqsadlarga erishish, balki atrof-dagilarning nazariga tushish orqali o'z menini ko'rsatishni o'ziga maqsab qilib oladi. Egoizm betaraf, befarq shaxs xislati emas, u agressiv va tajovuzkor, ixtirochi va qasoskoridir. Odamlar hulq-atvoridagi egoizm va uning ko'rinishlarini o'ziga xos o'rganish dastlab K. Muzdibaev tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u egoistik hatti-harakatga ko'proq moyil ijtimoiy guruhlarni aniqlash, ularning professional va ijtimoiy holati, yoshi va gender farqlarini tadqiq etdi. Tadqiqot natijalari egoistlarning boshqalar bilan munosabatlarda ular bilan shaxsiy aloqalarni buzadigan. bir qator shaxsiy xususiyatlarga ega ekanligi haqida xulosa qilish imkonini berdi. Egoistlarda burchiga beparvolik hissi yuqori bo'lib, ular uchun tajovuzkor hulq-atvor shakllari (kurash, o'ch olish, insofsizlik.) bilan birga ularda qasoskor, mag'rur va ayni paytda optimistik va adolatli dunyoga ishonish hislari ham qayd etildi. Ijobiy xususiyatlardan - boshqa kishilarga hazil tuyg'usi, optimizm kabi nisbatan betaraf xislatlarni ham namoyon etadi. Ular adovat, hasad, xudbinlik, beadablik va zaharlilikni o'zlarining bevosita muhitlariga nisbat beradilar. Egoizm odatda o'z-o'ziga yuqori baho berish hamda avtoritar yo'nalganligi bilan ustun bo'lish kabi xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. K.Muzdibaevning fikricha, egoizmga moyillik shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, inson yoshi ulg'aygan sari, egoizmga moyillik darajasi ham pasayib ketadi[5]. Hozirgi kunda psixologiyada shaxsning egoistik hulq ko'rinishlarini o'rganish bo'yicha adabiyotlar etarli emas, uni eksperimental o'rganishga bo'lgan ehtiyoj esa psixodiagnostik metodikalarga bo'lgan talabni kuchaytiradi. SHuning uchun shaxsdagi egoizmga moyilligini o'rganish, unga ta'sir etuvchi omillarni

nazariy o'rganish va psixologik eksperimental metodikalar, so'rovnomalarni ishlab chiqish bizning oldimizdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma'naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo'lib kelgan. Boshqa sohalar qatori psixologiya fani ham shaxs hulq-atvorining ijobiy tomonlarini shakllantirishda o'zining amaliy jihatlari bilan tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. SHunday ekan, jamiyatda salbiy hulq sifatida qaraladigan ayrim hulq ko'rinishlari, xususan, egoizmni tadqiq etish, psixokorreksion ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi, shuningdek, shaxsdagi egoistik hulqni korrektsiya qilishda ijtimoiy psixologik treninglar, rolli o'yinlar va psixologik mashg'ulotlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish natijasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Piaje J. Rech i mishlenie rebenka M.; L., 1932. 42-b
2. From, E. Dusha cheloveka. M.: AST-LTD, 1998. 8-b.
3. Stolyarenko, L.D., Samigin, S.I. Psixologiya i pedagogika voprosax i otvetax. Rostov - na -Donu: Feniks, 2009. 157-b
4. Leongard, K. Aktsentuirovannie lichnosti. M.: EKSMO - Press, 2001. 244-b
5. Muzdibaev K. // Sotsiol. issled. 1992. №11. B.94 – 101
6. Ilin.E.P. Psixologiya pomoshi. Altruizm, egoizm, empatiya. Piter. 2013.110-b